



KATTA YOSHDAGI AYOLLAR KIYIMLARIGA BO'LGAN TALABLARNI ANIQLASH

M.H.Sovridinova.¹, D.U.Yusupova²

^{1,2} Farg'ona Politehnika instituti Yengil sanoat va to'qimachilik fakulteti assistentlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813456>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 25-Dekabr 2021

Chop etildi: 30-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

repsodent yosh tahlili, so'rovnomada, ijtimoiy holat tahlili, modaga munosabat, yashash joyi, kiyim.

ANNOTATSIYA

Xozirgi kunda katta yoshdagi ayollar kiyimlarini assortimentini ishlab chiqarish uchun hududlar bo'yicha tahlil yani statistik tahlil asosida yashash hududi, yosh tahlili, modaga bo'lgan munosabatlari inobatga olgan holda kamchiliklarni bartaraf etish to'g'ri va munosib kiyim tanlashga bog'liq.

So'nggi yillarda respublikada yengil sanoatning to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda katta yoshli ayollar garderobi to'la shakllantirilmaganligi va kiyim assortimentini milliy ruxda shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Katta yoshdagi ayollar hayot tarzini yaxshiroq o'rganish maqsadida va ularning garderobi shakllanishiga ta'sir etuvchi

omillarni o'rganish uchun sotsiologik so'rovnomada o'tkazildi. So'rovnomada katta yoshli ayollarning turmush tarzini, ularning ijtimoiy statusini, estetik qiziqishlarini, didi va turli kiyimlarni kiyish vaziyatlarini tadqiqot qilishga qaratildi.


Hammasi bo'lib 350 dan ortiq ayollar so'rovnomada qatnashdi. Ular o'qituvchilar, xususiy tadbirkorlar, tijorat vakillari, shifokor, uy bekasi va ko'proq qismini nafaqadagi ayollar tashkil qiladi. So'rovnomada ishtirok etgan ayollar yoshi 50-70 yoshda.

Anketa savolnomasiga statistik usullar vositasida ishlov berildi. Anketada asosan katta yoshdagi ayollarning yoshi, yashash joyi, ishtimoiy ahvoli, garderobidagi kiyim turlari, kiyinish uslubi, modaga munosabati,



mato turi va kiyim haqidagi umumiy savollarning tahlili bo'yicha savollar berilgan.


Respondent yosh tahlili shuni ko'rsatdiki, 50-55 yoshdagi ayollar 37%, 56-60 yoshdagi ayollar 39 %, 61-70 yoshdagi ayollar 24 % ni tashkil qiladi (1-rasm).



1- rasm. So'rovnomada qatnashgan ayollarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi.

Ma'lumki katta yoshdagi ayollarimizni ko'proq % foizini nafaqadagi ayollar tashkil qiladi, statistika natijasiga ko'ra: 16%ni ishlaydigan ayollar, 20% ni uy bekalari,


25% ni o'qituvchilar, 33% nafaqadagilar, 7% ni tadbirkor ayollar tashkil etadi (2-rasm).




■ Ishlaydigan ayollar
 ■ Uy bekalari
 ■ O'qituvchi
■ Nafaqadagilar
 ■ Tadbirkor ayollar

2- rasm. So'rovnomada qatnashgan ayollarning ijtimoiy holati bo'yicha taqsimlanishi.

Yashash hududlariga ko'ra 53% ni shaharda, 47% ni esa qishloqda yashovchilar tashkil qiladi (3-rasm).



3-rasm. So'rovnomada qatnashgan




4-rasm. So'rovnomada qatnashgan

ayollarning yashash joyi bo'yicha ayollarning modaga bo'lgan munosabati taqsimlanishi bo'yicha taqsimlanishi.

Ularning modaga munosabatlari 6-savolimiz orqali aniqlashga harakat qildik va 31% ayollarimiz barcha moda tendensiyalarini kuzatishlarni va modaga butkul amal qilishlarini, 51% ayollarimiz esa, modaga qiziqishlari lekin kiyinishda butkul o'z fikrlariga amal qilishlarini, 18% ayollar esa modaga butkul befarq ekanliklari aniqlandi (4-rasm).

Katta yoshli ayollarimizni modaga munosabatlarini aniqlab olingandan keyin,

kiyimlarni odatda qayerlardan sotib olishlari aniqlandi. Natijaga ko'ra 15% firma do'konlaridan, 14% onlayn do'kondan, 41% tikuvchiga buyurtma qilish orqali va 31% boshqa manbaalardan (sovg'a, bozor yoki kichik sotuvchilik rastalari) dan xarid qilishlari aniqlandi (5-rasm).




5- rasm. So'rovnomada qatnashgan ayollarning odatda kiyimlarni qayerlardan olishlari bo'yicha taqsimlanishi.

Yoshi katta ayollarimizni modaga munosabatlarini aniqlab olingandan keyin, kiyimlarni odatda qayerlardan sotib olishlarini aniqlandi natijaga ko'ra 15% firma do'konlaridan, 14% onlayn do'kondan, 36% tikuvchiga buyurtma qilish

orqali va 35% boshqa manbaalardan (sovg'a, bozor yoki kichik sotuvchilik rastalari) dan xarid qilishlari aniqlandi.

ODATDA KIYIMLARNI QAYERDAN OLASIZ?




- Firma do'konlaridan
- Onlayn do'kondan
- Tikuvchiga buyurtma qilish orqali
- Boshqa manbalardan (sovg'a, bozor yoki kichik sotuvchilik rastalari)

7-rasm. Yoshi katta ayollar kiyimlarni qayerdan olishlari bo'yicha diagramma

Albatta hammaning dunyo qarashi va kiyinish uslubi ham shunga qarab turlicha sanaladi. Yoshi katta ayollarimiz statistik tahlil tahlilga ko'ra 42% klassik uslubda 9% sport uslubida, 17% elegant, 9% folklor, 23% esa vaziyatga yashash joyiga qarab kiyinshlari va ularga ayni bir kiyinish uslubida emas balki ularga unchalik uslub

ahamiyatsiz ekanligi aniqlandi. Statiska ya'ni so'rovnoma turli hududlarda olib borilganligi sababli yashash sharoiti geografik joylashuvi va madaniyatiga yani hayot tarziga qarab kiyinishdagi uslublari farqlandi.

**7-rasm. Yoshi katta ayollarkiyinish usullari bo'yicha diagramma**

Yosh, ijtimoiy holat va albatta yashash hududiga qarab katta yoshdagi ayollarning modaga bo'lgan munosabati hamda asosan ular kiyim-kechaklarini qayerlardan xarid qilishlari tahlil qilindi. Tahlil shuni ko'rsatadiki: yosh o'tgan sari inson modaga munosabati va kiyim rangini tanlashdan ochiqlikdan sari to'q ranglar tomon intilishi kuchayib borishi, moda tendensiyalarini doimo kuzatib borsalarda lekin kiyinishda o'z fikrlariga amal qilishlari aniqlandi. So'rovnomada ishtirok etgan ayollarning 24 % foizi milliy usulda kiyinishni afzal ko'rishlari ta'kidladi. Garderobni shakillantirishda albatta diniy e'tiqodi, yashash hududi, mintaliteti, urf-odat va milliy an'analarni hisobga olinadi.

Kiyim — inson tanasini tashqi muhit ([iqlim](#), [ob-havo](#) o'zgarishlari, quyosh nuri va boshqalar ta'siri va turli mexanik ta'sirlardan asraydigan vositalar to'plami; estetik vazifani bajaradi hamda [jins](#), [yosh](#), milliylik va b. [xususiyatlarni](#) o'zida aks ettiradi. Keng ma'noda "Kiyim" [tushunchasi](#) bosh kiyimlar, [oyoq](#) kiyimlar ([poyabzal](#)), qo'lqop va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Kiyimni loyihalash kiyimga qo'yladigan talablardan boshlanadi. Har qanday tikuvchilik buyumlariga aniq belgilangan talablar qo'yiladi.

Kiyimning talab xususiyatlari quyidagilar bila aniqlanadi: gigiyenik, ekspluatatsion, estetik.



Gigiyenik talablar — insonni tashqi muhitning turli xil omillaridan himoyalash (sovuq, issiq, yomg'ir), mexanik va kimyoviy zararlanishdan himoyalash, organizmning normal hayot faoliyatini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Ekspluatatsion talablar — foydalanishda qulaylik va ishonchlilikni ta'minlaydi.

Estetik talablar — zamonaviy,

modaga mos keluvchi kiyimni badiiy bezashni ta'minlaydi (siluyet, rang, qo'llanadigan gazlama guli, kiyim qismlari proporsiyasining detal shakli).

Ishlab chiqarish talablariga mehnat sarfini qisqartirish va materiallardan ratsional foydalanish yo'li bilan mahsulotni tayyorlashda texnik-iqtisodiy maqsadga muvofiqligini ta'minlash kiradi.

Kafedrada muhokamadan o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2019-yil 16-sentabrdagi PQ-4453-son qarori
2. Kh, Q. D., Nigmatova, F. U., Yusupova, D., & Sovriddinova, M. (2021). Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 56-64.
3. Yusupova, D. U., & Sovridinova, M. X. (2020, November). O_zbekistonda keksaygana yollar uchun kiyim kechak dizaynidagi hozirgi talab va rivojlanish tendensiyalari. In *Archive of Conferences* (Vol. 9, No. 1, pp. 190-192).
4. <https://www.google.com/search>